

## SOTSIOLINGVISTIKANING SHAKLLANISHI

**Karimova Sanobar - f.f.n. dotsent**  
**Ravshanova Feruza Murodullayevna**  
*O'zbek tili, adabiyoti va folklori*  
*instituti kichik ilmiy xodimi*

**Annotatsiya:** Maqolada fransuz, rus, Praga tilshunoslik maktab vakillari tomonidan tilning ijtimoiy tabiat bilan bog'liq fikr va qarashlar tahlil qilingan. Tilning ijtimoiy tabiatiga oid til vaziyati, tilning yashash shakli, til siyosati, adabiy til masalalarining o'r ganilishi natijasida yuzaga kelgan sotsiolingvistika rivoji haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** tilning ijtimoiy tabiat, jamiyat, antropotsentrizm, sotsiolingvistika, adabiy til, til vaziyati, tilning yashash shakli, jamiyatining sinfiy qatlamlanish

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi, ma'lum bir jamoa doirasida shakllanishi hamda o'sha jamiyatdagina yashashi, jamoa tilidan xalq tiliga aylanishi, jamiyatning tarixi va bugunidan xabardor qilishi haqidagi fikr mulohazalar bundan ancha yillar oldin olimlar tomonidan e'tirof etilgan. XIX asrning so'nggi yillarida ham tilning ijtimoiy xususiyatlari falsafa, psixologiya, sotsiologiya kabi sohalar nuqtayi nazarida o'r ganilgan bo'lsa, XX asrga kelib tilning ijtimoiy xususiyatlari yana qayta tilshunoslar e'tiboriga tushadi.

Tilning ijtimoiy tabiatini va tilning ijtimoiy xususiyatlari haqida Y.Odilovning "Tilning ijtimoiy tabiat" nomli maqolasida ma'lumotlar keltirilgan. Unda qayd qilingan; Lisoniy hodisalarning ijtimoiy xususiyatlari dastlab fransuz, keyin nemis, ingliz, slavyan, olimlari ishlarida aytla boshlagan. E.Dyurkheym, G.Tard, M.Kornexo, Levi-Bryul singari farang jamiyatshunoslari lisoniy materiallarga tayanib, tilning ijtimoiy tabiatliligi haqida fikr yuritganlar. M.Breal, A.Meye, F.Sossyur, Sh.Balli singari tilchilar hali antropotsentrizm bugungidek keng yoyilmagan bir vaqtida jamiyatshunoslik xulosalaridan foydalanib til ijtimoiyligini yoritganlar<sup>1</sup>. Demak, Fransuz jamiyatshunoslari jamiyatning o'zaro munosabatini o'r ganishda lingvistik materiallardan foydalangan hamda jamiyat a'zolarini sinfiy qatlamlarga ajratgan. Shundan keyin tilshunoslar tilning yashash shakllarini sotsiologik vaziyatlar bilan bog'liqlikda o'r ganishga e'tibor qaratganlar.

1549-yilda Ioxim Dyu Bellening "fransuz tilini himoyalash va uni tanitish" (La Deffence, et illustration de la langue francoise)<sup>2</sup> asari chop etilgan. Asarda tilni – inson

<sup>1</sup> Odilov.Y. Tilning ijtimoiy tabiat // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2024. №1 – B.59.

<sup>2</sup> Du Bellay Ioachim. La Deffence, et illustration de la langue francoise Ed. Francis Goyet et Olivier Millet. Paris. Chempion, 2003. – P.12

ongining ijodi, g‘oyasi, ijtimoiy hayotning shartlariga javob beruvchi vosita ekanligi haqida so‘z boradi.

1894-yilda P.Lafargning “Til va inqilob” asari chop etiladi. Bu asar fransuz tilshunosligida tilning ijtimoiy xususiyatlari haqida ma’lumot beruvchi ilk asar bo‘lib, asarda 1791-1798-yillarda fransuz inqilobidan keyingi til vaziyati, o‘sha davrdagi ijtimoiy qarama-qarshiliklarning tilga ta’siri, jamiyatining sinfiy qatlamlanishi tilda ifodalanishi, tilda uchrayotgan yangi so‘zlarning ma’nosini tarixiy so‘zlar yordamida tushuntirilgan<sup>3</sup>.

Fransuz tilshunosligidagi sotsiologik yo‘nalishning keyingi rivoji fransuz tilshunoslik maktabining shakllanishi bilan kuzatiladi. Mazkur maktab asoschilari F.de.Sossyur va uning izdoshlari A.Meye, M.Koenlardir<sup>4</sup>. Ular til – ijtimoiy hodisa va uning taraqqiyoti bevosita jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq, degan g‘oya ostida tadqiqot olib borganlar.

F.Sossyurga ko‘ra, til – ijtimoiy hodisa. U til jamoasi (sotsium)ning barcha a’zolari uchun majburiy belgilar tizimidir. Til kishilik jamiyatida aloqa quroli, fikrni ifodalaydigan vositadir. Nutq esa individual hodisadir. Til ma’lum ma’noda til jamoasi a’zolari tomonidan tuzilgan bitim sifatida mavjud. Til jamoasining bironta a’zosi o‘zicha tilni yarata ham olmaydi, uni o‘zgartira ham olmaydi. Tilning haqiqiy tasviri lug‘at va grammatikadir. Til – leksik-grammatik tizim, birliklar va qoidalar majmuasi bo‘lib, uning yordamida har bir kishi individual nutq asarlari yarata oladi<sup>5</sup>. Olimning til ijtimoiy hodisaligiga oid qarashlarini keyinchalik A.Meye, A.Martine, M.Koen kabi tilshunoslardavom ettirgan.

A.Meyening fikricha, til – jamiyat hayoti bilan bevosita aloqada bo‘lgan ijtimoiy hodisa ekanligi va til rivojlanishida kuzatiladigan ikki jarayon: differensiatsiya va unifikatsiya haqida ma’lumot beradi. Differensiatsiya biror dialekt so‘zlashuvchilarining turli hududlarda joylashuvi yoki biror jamiyat ichidagi tafovutlar natijasida paydo bo‘ladi. Brixillashtirish xalqlarni bosib olish oqibatida g‘oliblar tilining mag‘lublar tilini siqib chiqarishi tufayli umumiylar tilning shakllanishidir<sup>6</sup>. Ushbu ma’lumotlar til jamiyat hayoti bilan bog‘liqligi, lisoniy jarayonlarni bevosita jamiyat hayoti bilan birgalikda o‘rganish lozimligini bildirmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmida fransuz tilshunosligida sotsiolingvistika rivojiga hissa qo‘shgan Andre Martine bo‘lib, u tilni har bir jamiyatning o‘ziga xos aloqa

<sup>3</sup>Лафарг П. Язык и революция: французский язык до и после революции (La langue française avant et après la Révolution 1894). Перевод с французского Т. Фалькович и Е. Шишмаревой под редакцией и с предисловием В. Хоффеншефера: Лафарг и проблемы языка. – М.: Академия, 1930. – С. 22.

<sup>4</sup> Dadaboyev H., Usmanova Sh., Xorijiy sotsiolingvistika. – Toshkent: 2023. – B.55

<sup>5</sup> Соссюр Ф. де. Труды по языкоznанию. – М., 1977.

<sup>6</sup> Meillet Antoine. Linguistique historique et linguistique générale. – Paris, 1921. – P. 110-129

vositasi, muloqot ehtiyojlariga ko‘ra o‘zgaruvchanligini, tilda uchraydigan jargonlar, shevalar, dialektlar, ikki tillilikning paydo bo‘lish sabablarini tushuntirib beradi<sup>7</sup>.

1978-yilda Fransiyaning Parij shahrida birinchi marta sotsiolingvistika muammolariga bag‘ishlangan konferensiya bo‘lib o‘tdi. Anjumanda til me’yori, jamiyat a’zolarining ijtimoiy, madaniy, aqliy, ruhiy xususiyatlarining tilda namoyon bo‘lishi, ko‘p tillilik, ikki tillilik yoki ma’lum bir tilning ikki yashash shaklining jamiyatda qo‘llanilishi, so‘zlashuvchilarining ijtimoiy mavqeyiga ko‘ra tilda qo‘llaydigan grammatik kategoriyalari va nutq bo‘laklari orasidagi o‘zaro aloqa, tillarni o‘qitish kabi masalalar e’tiborga olingan<sup>8</sup>. Ushbu anjumanda, garchi sotsiolingvistika termini ostida bo‘lmasa-da, ijtimoiy tilshunoslik sohasining asosiy masalalari ko‘riliши, fransuz tilshunosligida sotsiolingvistika sohasining shakllanganligini bildiradi.

Fransuz tilshunoslarning tilning ijtimoiyligi haqidagi mulohazalari XX asr 20-30-yillarida sovet tilshunoslarning ham e’tiborini tortadi<sup>9</sup>. Bu yillarda nashr etilgan R.O.Shor, E.D.Polivanov, K.N.Derjavin, B.A.Larin, M.V.Sergievskiy, M.N.Peterson, L.Yakubinskiy, N.M.Kariyskiy, V.M.Jirmunskiy, A.M.Selishchev va boshqalar ishlarida ijtimoiy tilshunoslikning asosiy vazifalari va muammolari yoritilgan va unda turli tillar materiallaridan foydalaniilgan<sup>10</sup>.

Rus tilshunoslida B.A.Larinning “Shahar tilining lingvistik tadqiqi”<sup>11</sup> asari katta ahamiyatga ega. Asarda rus tilshunoslida birinchi marta shahar tilini o‘rganish muammosi alohida hodisa sifatida ko‘riladi, shahar tilini adabiy tildan ham qishloq shevalaridan ham ajratib turadigan xususiyatlari haqida ma’lumotlar beriladi. A.Larin shahar folklorini, yozma tilning turlarini, shahar aholisining turli qatlamlarining so‘zlashuv nutqini, xalq tilini o‘rganmasdan adabiy tilning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganib bo‘lmasligini aytadi.

30-yillarning boshida rus tilshunoslida ijtimoiy tilshunoslikning rivojiga hissa qo‘shgan A.M.Ivanov va L.P.Yakubinskylarning “Til ocherklari”<sup>12</sup> asari bo‘lib, asarda nutqiy muloqotda ijtimoiy jamoalarning til qo‘llashdagi farqi, hududiy dialektlaridan milliy tilni shakllantirish mumkin, degan fikrlarni berib o‘tadi.

Rus tilshunoslida adabiy til, sheva, dialect masalalarini o‘ganishni N.M.Kariyskiy davom ettirgan. Uning “Rus dehqonlari tilidan ocherklar”<sup>13</sup> asarida

<sup>7</sup> Мартине А. Основы общей лингвистики (Elements de linguistique generale). В кн: Новое в лингвистике. Вып. 3. – М., 1963. – С. 12.

<sup>8</sup> O’sha manba, 57-bet

<sup>9</sup> Жирмунский.В.М. Марксизм и социальная лингвистика. В сб.: «Вопросы социальной лингвистики»: – Л., «Наука», 1969. – С. 5.

<sup>10</sup> Чемоданов.Н.С. Проблемы социальной лингвистики в современном языкоznании //Новое в лингвистике. - Вып. VII. Социолингвистика – М., 1975. – С. 5-33

<sup>11</sup> Ларин.Б.А. О лингвистическом изучении города. «Русская речь», вып. III, 1928, – С. 61 и сл.

<sup>12</sup> Иванов А.М. и Якубинский.Л.П. Очерки по языку. Для работников литературы и для самообразования.– М., – Л. 1932.

<sup>13</sup> Каринский. Н.М. Очерки языка русских крестьян. Говор деревни Ванилово. – М., – Л., 1936.

Moskva yaqinidagi Vanilovo qishlog‘i dialektini 1932 yilda ijtimoiy jihatdan tavsiflagan. U qishloq aholisining ijtimoiy jihatdan tabaqalashganligi savdo ishlarida, kasbi, ma’lumoti, jinsi, yoshi kabi farqlarni qishloq aholining til qo‘llanilishida kuzatilishi va bir necha qatlamlarni topish mumkinligini ko‘rsatadi. Vanilov lahjasi Birinchi Jahon urushi davrida va mintaqaning keyingi sanoatlashuvidan omon qolgan 30 yillik arxaik xususiyatlar faqat keksa avlod vakillarida saqlanib qolganligini va aholining eng faol qismi adabiy tilda so‘zlashishi, dialektning adabiy til bilan yaqinligini o‘rgangan. Bu asarda ijtimoiy tilshunoslikning asosiy masalalaridan tilning yashash shakli, til vaziyati, til siyosati kabi masalalarning o‘rganilishi rus tilshunoslida sotsiolingvistikating fan sifatida shakllanishi asos bo‘ldi. Shunday qilib, rus tilshunoslida ijtimoiy tilshunoslik yo‘nalishining mazmunini tavsiflovchi asarlarning asosiy masalalasi adabiy til muammosi bilan bog‘liqligini kuzatish mumkin. Xususan, V.M.Jirmunskiyning o‘z davri uchun diqqatga sazovor bo‘lgan “Milliy til va ijtimoiy dialektlar”<sup>14</sup> asari ham burjua jamiyati tilida sinfiy tabaqalanish muammosiga bag‘ishlangan. Asarda milliy til va shevalar o‘rtasidagi munosabat, tilning ijtimoiy tabaqalanishi, hukmron sinf tili, kapitalizm davridagi sinfiy kurash kabi masalalar o‘rganilgan.

30-yillarning ikkinchi yarmi rus ijtimoiy tilshunoslida V.V.Vinogradovning “Rus adabiy tili tarixidan esselar”<sup>15</sup> asari alohida o‘rin tutadi. Unda birinchi marta rus adabiy tili rus xalqi madaniyati tarixining uzviy qismi sifatida o‘rganil. Adabiy til uslublarining ijtimoiy jarayon ta’sirida o‘zgarishi va rus adabiy tilining milliy demokratik asoslari, rus jamiyati rivojlanishidagi sinfiy qarama-qarshiliklar haqida ma’lumotlar bergen. V.Vinogradovning adabiy til muammosi nafaqat tilshunoslikning alohida mustaqil sohasi, balki ijtimoiy tilshunoslikning eng muhim masalasi ekanligini ko‘rsatdi.

Rus tilshunoslida til hodisalarining ijtimoiy xususiyatlari, ijtimoiy sharoitlar ta’sirida vujudga kelgan til faoliyatini o‘rganish, dialektning adabiy tilga asos bo‘lishi, milliy va adabiy til tushunchasi bilan bog‘liq muammolar, yozma va og‘zaki nutq masalasi, ijtimoiy taraqqiyotning tilga ta’siri, ijtimoiy jarayon tufayli nutqiy o‘rgarishlar, kabi muammaolarni o‘rganish ijtimoiy tilshunoslikning asosiy masalasi ekanligi, rus tilshunoslari tomonidan izohlangan.

XX asr 20-yillarning oxiri 30-yillarning boshlarida ijtimoiy tilshunoslik Praga lingvistik maktabining adabiy til nazariyasi bilan boyidi. Asosan, B.Gavranek asarlarida, shuningdek, Praga lingvistik maktabining bir qator dasturiy hujjalariida

<sup>14</sup> Жирмунский В. Национальный язык и социальные диалекты. – Л. Художественная литература, 1936.

<sup>15</sup> Виноградов В.В. Очерки по истории русского литературного языка XVII-XIX вв. Издание второе, переработанное и дополненное. – М. Учпедгиз, 1938. Первое издание книги вышло в 1934 г.

shakllantirilgan adabiy til nazariyasi tubdan yangi tushunchasini aks ettirdi, unda muayyan ijtimoiy ehtiyojlar natijasida yuzaga kelgan adabiy til ifodalandi<sup>16</sup>.

R.O.Yakobson<sup>17</sup> ikki jahon urushi davrida Yevropa tilshunosligini tavsiflab, pragaliklar tilni muloqot vositasi sifatida qarashdan kelib chiqadigan “tilning maqsadli modelini yaratish istagi” bilan ajralib turishini ta’kidladi. Pragaliklar tomonidan adabiy til ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan, muayyan davlat vazifalarini bajarish uchun qo‘llaniladi, deb tushunishgan. Praga maktabining chex adabiy til muammolari turli vaqtarda turlicha hal qilingan. Dastlab, adabiy til xalq tiliga qarama-qarshi bo‘lgan yozma kitob tili bilan birlashtirildi. Keyinchalik adabiy til tushunchasi yangicha talqin qilinib, u o‘zining yozma va og‘zaki turlarida murakkab stilistik tuzilma, bir xalq tiliga yaqin bo‘lgan, faqat o‘zaro tushunish maqsadlariga xizmat qiluvchi ko‘p vazifali til sifatida qarala boshlandi. Praga aholisining til rivoji va jamiyat rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi qarashlari ham o‘zgardi. Adabiy til muammosiga alohida bo‘lim bag‘ishlandi.<sup>18</sup> Praga lingvistik maktabining adabiy til mumammosi xususidagi fikr mulohazalar uzoq davom etadi. Bu maktab vakillari tomonidan adabiy tilni muammosini isloh qilishda bevosita tilning ijtimoiylik xususiyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganilishi sotsiolingvistik ishlarning yuzaga kelishi natijasida tilshunoslik sotsiolingvistik yo‘nalishining shakllanishiga xizmat qiladi.

60-yillarning boshlarida til sohasidagi sotsiologik tadqiqotlarga keng qiziqish AQSH tilshunosligida ham paydo bo‘ldi. Sotsiolingvistika tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lib, birinchi bor bu termin AQSHda 1952-yilda fanga kiritilgan. AQSH sotsiolingvistikasining asosiy muammolari D.Xaymsning “Nutq etnografiyasi”, nomli asarida tadqiq qilinib, “muloqot vaziyati”, “muloqot akti”, “lisoniy jamoa”, “muloqot salohiyati” kabi tushunchalar yoritiladi<sup>19</sup>.

Xullas, fransuz tilshunosligida sotsiolingvistika sohasining shakllanishining asosiy sabablaridan biri, fransuz jamiyatining turli qatlamlarga mansubligi muloqot jarayonida til qo‘llash me’yorlarida namoyon bo‘lgan. Rus va Praga tilshunoslik maktabining asosiy masalalaridan biri adabiy til muammosi bo‘lgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida siyosiy ijtimoiy vaziyatlar sababli o’sha davr tilshunoslaring asosiy masalasi hamma uchun tushunarli, davlat ishlarida qo‘llaniladigan, me’yorchashgan va shevalardan ustun turadigan adabiy til yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan. Tilshunoslikda

<sup>16</sup> Bu haqda qarang: «Пражский лингвистический кружок». – М., «Прогресс», 1967; Й. Вахек. Лингвистический словарь Пражской школы. Русский перевод. – М., «Прогресс», 1964; Josef Vachek. The Linguistic School of Prague. Bloomington & London, 1966; «A Prague School Reader in Linguistics)). Compiled by J. Vachek. Bloomington, 1964.

<sup>17</sup> Якобсон. Р. Разработка целевой модели языка в европейской лингвистике в период между двумя войнами. «Новое в лингвистике», IV, стр. 372 и сл.

<sup>18</sup> O’sha manba, 26-28- betlar

<sup>19</sup> Humes D.H. The ethnography of speaking. “Anthropology and Human Behavior”, ed by Thomas Gladwin and W.C.Sturtvant. – Washington, D.C., 1962. – P. 15-53

adabiy til muammosining paydo bo‘lishi ham bevosita ijtimoiy vaziyatlar bilan bog‘liqligi, tilshunoslik hamda sotsiologiya sohalarining bog‘lanishini taqozo qiladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Odilov.Y. Tilning ijtimoiy tabiat // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent., 2024. – B.59. №1.
2. Du Bellay Ioachim. La Deffence, et illustration de la langue francoise Ed. Francis Goyet et Olivier Millet. Paris. Chempion, 2003. – P.12
3. Лафарг П. Язык и революция: французский язык до и после революции (La langue française avant et apres la Revolution 1894). Перевод с французского Т. Фалькович и Е. Шишмаревой под редакцией и с предисловием В. Хоффенштейфа: Лафарг и проблемы языка. – М.: Академия, 1930. – С. 22.
4. Dadaboyev H., Usmanova Sh., Xorijiy sotsiolingvistika. – Toshkent:, 2023. – B.55
5. Соссюр Ф. де. Труды по языкоzнанию. – М., 1977.
6. Meillet Antoine. Linguistique historique et linguistique generale. – Paris,1921. – P. 110-129
7. Мартине А. Основы общей лингвистики (Elements de linguistique generale). В кн: Новое в лингвистике. Вып. 3. – М., 1963. – С. 12.
8. Жирмунский.В.М. Марксизм и социальная лингвистика. В сб.: «Вопросы социальной лингвистики»: – Л., «Наука», 1969. – С. 5.
9. Чемоданов.Н.С. Проблемы социальной лингвистики в современном языкоzнании //Новое в лингвистике. - Вып. VII. Социолингвистика – М., 1975. – С. 5-33
10. Ларин.Б.А. О лингвистическом изучении города. «Русская речь», вып. III, 1928, – С. 61 и сл.
11. Иванов А.М. и Якубинский.Л.П. Очерки по языку. Для работников литературы и для самообразования.– М., – Л. 1932.
12. Каринский. Н.М. Очерки языка русских крестьян. Говор деревни Ванилово. – М., – Л., 1936.
13. Жирмунский. В Национальный язык и социальные диалекты. – Л., «Художественная литература», 1936.
14. Виноградов. В.В. Очерки по истории русского литературного языка XVII-XIX вв. Издание второе, переработанное и дополненное. – М., Учпедгиз, 1938. Первое издание книги вышло в 1934 г.
15. См. сб. «Пражский лингвистический кружок». – М., «Прогресс», 1967; Й. Вахек. Лингвистический словарь Пражской школы. Русский перевод. – М., «Прогресс», 1964; Josef Vachek. The Linguistic School of Prague. Bloomington & London, 1966; «A Prague School Reader in Linguistics)). Compiled by J. Vachek. Bloomington, 1964.
16. Якобсон. Р. Разработка целевой модели языка в европейской лингвистике в период между двумя войнами. «Новое в лингвистике», IV, стр. 372 и сл.
17. Humes D.H. the ethnography of speaking. “Anthropology and Human Behavior”, ed by Thomas Gladwin and W.C.Sturtvant. – Washington, D.C., 1962. – P. 15-53